

**XODIMNING MEHNAT HAQIDAN UNDIRUVLARNI AMALGA OSHIRISHDAGI
MASALALAR**

Jamoliddinov Jobirbek Bohodir o‘g‘li

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi*

Mullayev Baxtiyor Yaxyoyevich

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi*

Annotatsiya: *Mazkur tezisda ish beruvchi va shtat birligidagi hodimning hozirgi kundagi global muammolaridan biri bo‘lgan noto‘g‘ri to‘lovlarini oldini olish, moliyaviy buzilishlarni kamaytirish va ularni oldini olish kabi masalalarni yoritib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: mehnat haqi, qo‘srimcha to‘lovlar, soliqlar, mehnat ta’tili, intizomiy jazo, bo‘nak, uzluksiz ish staji, ustama .

Mehnat haqi shakli va tizimlari, mukofotlar, qo‘srimcha to‘lovlar, ustamalar, rag‘batlantirish tarzidagi to‘lovlar jamoa shartnomalarida, shuningdek ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib qabul qilinadigan boshqa lokal hujjatlarda belgilanadi. Mehnatga haqi, qoida tariqasida, pul shaklida to‘lanadi.

Xodimning mehnat haqidan undiruvlarni amalga oshirish uning yozma roziligi bilan yoki sudning qaroriga ko‘ra amalga oshirilishi mumkin.

Xodimning roziligesiz mehnat haqidan quyidagi hollarda ushlab qolinishi mumkin:

- belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini undirish uchun;
- sudning qarorlari va boshqa ijro hujjatlarini ijro etish uchun;
- oldindan berilgan maqsadli pullar bo‘yicha hisob-kitob qilish hamda ortiqcha to‘langan summani qaytarib olish uchun;
- mehnat ta’tili bo‘yicha hisob-kitob qilish uchun;
- xodim tomonidan ish beruvchiga etkazilgan zararni qoplash uchun;
- intizomiy jazo tariqasida tayinlangan jarimani undirish uchun.²⁴

Mehnat Kodeksiga asosan “ish haqi hisobiga berilgan bo‘nakni ushlab qolish uchun, boshqa joydagi ishga ko‘chib o‘tganligi munosabati bilan xo‘jalik ehtiyojlariga, xizmat safarlariga berilgan, sarflanmagan va o‘z vaqtida qaytarilmagan bo‘nakni ushlab qolish uchun hamda hisob-kitobdagi xatolar oqibatida ortiqcha to‘langan summalarini qaytarib olish uchun. Bunday hollarda ish beruvchi bo‘nakni qaytarish, qarzdorlikni to‘lash uchun belgilangan muddat tamom bo‘lgan kundan yoki to‘lov noto‘g‘ri hisoblab chiqarilgan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay ushlab qolish haqida buyruq chiqarishga haqli. Agar bu muddat o‘tib ketgan bo‘lsa yoki xodim bo‘nakni to‘lash

²⁴ Huquqiy axborot portali advice.uz

uchun ushlab qolish asoslariga yoxud miqdoriga e'tiroz bildirayotgan bo'lsa, qarzni to'lash sud tartibida amalga oshiriladi”²⁵ deb ko'rsatib o'tilgan.

Respublikamiz hududidagi ko'plab budget tashkilotida ishlovchi hodimlarning ish haqiga qo'shimcha ustama haqlari belgilangan. Misol uchun tibbiyot hodimlariga uzlusiz ish staji uchun 5 yildan 10 yilgacha tarif stavkasining 5 foizi, uzlusiz ish staji 10 yildan 15 yilgacha tarif stavkasining 10 foizi, uzlusiz ish staji 15 yildan 20 yilgacha tarif stavkasining 15 foizi, ish staji 20 yildan oshiq bo'lsa tarif stavkasining 20 foiz miqdorida ustama berish belgilangan.

Uzlusiz ish staji uchun belgilangan ustamalarni to'lashda noto'g'ri (ortiqcha) to'lash holatlari amaliyatda ko'plab uchramoqda. Noto'g'ri to'langan to'lovlarni tegishli tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan taftish davomida yoki korxona tashkilotlarning buxgalter xodimlari tomonidan bir qancha vaqtadan so'ng aniqlanmoqda. Quyidagi jadvalda bir hodimning bir yil davomida uzlusiz ish satji uchun to'langan taxminiy ortiqcha to'lojni ko'rish mumkin.

1 –jadval

**Hodim To'ychiyev O. O ning 2022 yil davomida uzlusiz ish staji uchun noto'g'ri (ortiqcha) to'langan ustama haq
(so'mda)**

T/r	Taxminiy ortiqcha v aniqlangan davr	To'langan na	Haqiqatda nishi kerak bo'lgan na	Ortiqcha v miqdori	Izoh
1	2022 yil yanvar	801 000	534 000	267 000	
2	2022 yil fevral	801 000	534 000	267 000	
3	2022 yil mart	801 000	534 000	267 000	
4	2022 yil aprel	801 000	534 000	267 000	
5	2022 yil may	801 000	534 000	267 000	
6	2022 yil iyun	801 000	534 000	267 000	
7	2022 yil iyul	801 000	534 000	267 000	
8	2022 yil avgust	801 000	534 000	267 000	
9	2022 yil sentabr	801 000	534 000	267 000	
10	2022 yil oktabr	801 000	534 000	267 000	
11	2022 yil noyabr	801 000	534 000	267 000	
12	2022 yil dekabr	801 000	534 000	267 000	

Bir yil davomida bitta hodimga noto'g'ri to'lovlari 3 204 000 (uch million ikki yuz to'rt ming) so'mni tashkil qilmoqda. Ortiqcha to'lov to'langan vaqtidan bir oydan oshiq vaqtida aniqlanganligi sababli, undiruvga qaratishda hodim va ish beruvchi o'rtasida turli xil nizolar, noroziliklar paydo bo'lmoqda. Natijada aybdor shaxs sifatida korxona va tashkilotning buxgalteri yoki mansabdor shaxsdan undirilmoqda. Bu esa hodimning o'z kasbiga bo'lgan qiziqishi, shaxsiy daromadining kamayishi, shaxsiy hayoti va ruhiy holatida turli xil o'zgarish ro'y berishiga olib kelmoqda.

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi 269 modda 3 bandi

Mehnat Kodeksiga asosan “Ish beruvchi xodimning pulga oid talablarini muddati cheklanmagan holda butun davr uchun qanoatlantirishga haqli. Xodimning pulga oid talablari yakka tartibdagi mehnat nizosini ko‘rib chiquvchi mehnat nizolari bo‘yicha komissiya yoki sud tomonidan asosli deb topilgan taqdirda to‘liq miqdorda qanoatlantiriladi”²⁶ deb ko‘rsatib o‘tilgan.

Mehnat Kodeksining 546 moddasiga asosan xodimning pulga oid talablarini cheklanmagan holda butun davr uchun qanoatlantirilishini hamda ushbu kodeksning 269 modda 3 bandiga asosan noto‘g‘ri to‘langan to‘lovlarni muddati bir oydan o‘tgandan so‘ng aniqlanganda ushlab qolish haqida korxona raxbarining buyrug‘i ishlab chiqishga haqli emasligi, natijada aybdor shaxs sifatida noto‘g‘ri to‘langan hodimdan emas, korxonaning buxgalteri yoki mansabdar shaxsdan undirilishi bir biriga zid holatlarni vujudga keltirmoqda.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan xolda Mehnat kodeksining 269 modda uchinchi bandidagi “*noto‘g‘ri hisoblab chiqarilgan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay ushlab qolish haqida buyruq chiqarishga haqli*” belgilangan muddatni olti oygacha yoki cheklanmagan holda butun davr uchun deb belgilanishi maqsadga muvofiq bo‘lardi. Chunki, bu orqali noto‘g‘ri to‘lovlar amalga oshirilganda undiruv o‘ziga qaratilishini inobatga holda zudlik bilan korxona buxgalteriga o‘zi axborot beradi, natijada korxona va tashkilotlarda moliyaviy buzilishlar oldi olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi
3. Huquqiy axborot portalı advice.uz

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 546 modda